

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA METAFORALARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Ro'zmetova Shohida Ravshanbek qizi

Urganch davlat Universiteti

Lingvistika(ingliz tili) yo'nalishi

2- kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqoladama'no ko'chsh turlaridan bir metafora haqida bo'lib, undagi muammolar haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Ma'no ko'chish turlari, O'xshatish va metafora, lingvistik metafora, xususiy muallif metaforalari*

"Metafora" atamasi tilshunoslik sohasiga tegishli bo'lib, yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, tarjimada "transfer" degan ma'noni anglatadi. Demak, metafora - bu majoziy ma'noda ishlatilgan so'z yoki ibora, ob'ekt yoki hodisaning boshqa hodisa bilan qandaydir munosabatlar asosida majoziy tasviri. Bu atamaning muallifligi Aristotelga tegishli.

Metaforaning asosiy vazifasi - ob'ektni boshqa ob'ektlar bilan taqqoslab, esda qolarli tasvirni yaratishdir. Natijada, tasvir kuchli, sig'imli bo'ladi va ishlatilgan taqqoslashlarning g'ayrioddiylik tufayli katta ta'sir ko'rsatadi.

Metafora she'riyati tufayli adabiyotda keng qo'llaniladi. Texnika har ikkalasining ham o'ziga xos xususiyatlaridan foydalangan holda, bir ob'ekt yoki hodisaning xususiyatlarini boshqasiga o'tkazish bilan tavsiflanadi. Metafora bitta so'z yoki butun ifoda bo'lishi mumkin. Bu erda ba'zi misollar:

Va ehtimol - mening qayg'uli quyosh botishimga

Sevgi xayrlashish tabassumi bilan porlaydi.

Uning so'zlari ruh uchun balzamga o'xshardi.

Biz konkilarimizni kiyib, daryo oynasi bo'ylab yugurdik.

Sizning qalbingiz olovga to'la.

Qizil tog 'kulining olovi.

Uning juda ko'p puli bor.

Uning barmog'ingizni og'zingizga qo'ymang.

Shon -sharaf masalasi.

Issiqlik shamol yuzimni silab qo'ydi

Metaforalarni - aniqroq ifodalash uchun ob'ektlarga qo'shilgan ta'riflar bilan aralashtirmang, masalan: temir xarakter, tosh yurak, o'tkir aql va boshqalar. Bu badiiy texnikani bir -biri bilan to'ldirib, yanada qiziqarli tasvirlarni yaratish mumkin.

Metafora - bu yashirin taqqoslash.

Metafora nimadan iborat?

Metafora doimiy ravishda ishlatiladi Kundalik hayot, ko'pincha bilmasdan. Mavjudligiga qarab umumiy xususiyatlar biz bir xil so'z bilan turli narsalarni chaqiramiz. Masalan, "o'tkir" va "tikanli" umumiy xususiyatlarga asoslanib, biz igna deymiz:

Jarroh va tikuvchi asbobi.

Ignalilarga o'xshash ignabargli barglari.

Ba'zi hayvonlarning mo'ynasini almashtiradigan shakllar (masalan, kirpi ignalari).

Odamlar ko'pincha o'zlarini xatti -harakatlarini yoqtirmaydigan boshqa odamlarni hayvonlar bilan solishtirishadi. Masalan, odamga nisbatan "echki" va "qo'chqor" ko'pincha ikkinchisining aqliy qobiliyatini so'roq qilish uchun ishlatiladi. Bu holatda umumiy xususiyat - bu odamga emas, balki hayvonga xos bo'lgan tushunarsiz xatti -harakatlar. Shunday qilib, metafora quyidagilardan iborat: Biror narsa bilan taqqoslanadigan mavzu. Bu har qanday jonli yoki jonsiz narsa, shuningdek, hodisa bo'lishi mumkin. Rasm - bu mavzu bilan taqqoslanadigan narsa.

Umumiy xususiyat - bu ob'ektga ham, tasvirga ham xos bo'lgan narsa. Til bevosita ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan ma'naviy meros, bebaho boylik hisoblanadi. O'zbek va jahon tilshunosligida so'z va uning ma'nolari xususida ko'plab ilmiy nazariy qarashlar mavjud bo'lib, unda so'z ma'nolarning o'ziga xosligi, mohiyati, turlari, xususan, so'z ma'nolarining ko'chishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar maydonga kelgan. So'z ma'no ifodalash bilan birga, turli emotsiyalarni, his-tuyg'ularni ham ifodalaydi. So'z yakka holda bildirgan ma'nosidan tashqari, qo'llanishida, nutq ichida, ko'chgan ma'noda ishlatilishi, emotsional bo'yoqqa ega bo'lishi ham mumkin. Masalan, bolam so'zi o'rniga qo'zichog'im, toychog'im yoki bo'tam, bo'talog'im deyish; -jo'ja birday jon (bolasi ko'p); bu bola sher (qo'rqmas); zurriyod (farzand) kabi qo'llanishlar; otajon, bolaginam, jonim otam so'zlarining ma'nosi turli yo'llar bilan ifodalangan. Bundan ko'rinadiki, so'z ma'nosi butun bir sistema bo'lib, u qo'shimcha ma'nolarini ham, emotsional-stilistik ottenkalarni ham o'z ichiga oladi. Bu hodisa so'zning ma'no strukturasi deyiladi. So'zning semantik strukturasi shu so'z ifodalaydigan ma'nolarning yig'indisi, so'zning butun ma'no sistemasidir. Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil bo'lishi barcha mutaxassislar tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin nom ko'chishiga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasidagi qarashlar turlicha. Ba'zi ishlarda nom ko'chishiga olib keladigan hodisaning ikki turi ko'rsatilsa, ayrim ishlarda bunday hodisalarning undan ko'p turlari ko'rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko'pchiligida esa (ayniqsa, keyingi vaqtlarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko'chishiga olib keluvchi hodisaning to'rt turi keltiradi: 1) metafora, 2) metonimiya, 3) sinekdoxa, 4) vazifadoshlik.

Ma'lumki, so'zlar asl-real ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noni ham anglatadi. So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo'llaniladi. So'zlarning ko'chma ma'nosi faqat kontekstda reallashadi Insoniyatning olamni bilishida o'xshatishning o'rni beqiyosdir. Yangi kuzatilayotgan narsa

va hodisa doimo oldin o'zlashtirgan narsa va hodisaga qiyoslanadi, ular o'rtasidagi o'xshashlik oldingi nomning yangi narsa va hodisa uchun ishlatilishiga sabab bo'ladi. Tilda ilgari mavjud bo'lgan nomning muayyan o'xshashlik asosida yangi ma'no uchun qo'llanishi oddiy nominatsiya vazifasinigina bajarmaydi, balki tinglovchiga ta'sir etish vazifasini ham bajaradi, hamda tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ana shunday ko'chim - Metaforadir.

Metafora bu nafaqat lisoniy bezak, balki ma'noni yanada kuchaytiruvchi vosita hamdir. Aristotelning "Poetika" asarida metafora tushunchasiga ta'rif berilgandan buyon bu hodisaga qiziqish ortsa ortdiki, sira susaygan emas. O'tgan davrlar mobaynida metaforaga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, shu soha bilan shug'ullanganlarning hammasi Arastu ta'rifini yodga olib o'tadilar. Aristotelning o'zi ham bu haqda quyidagi fikrlarni e'tirof etgan: "Ko'chma so'z (metafora) narsaga xos bo'lmagan, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yohud turdan turga ko'chirilgan yoki o'xshatilgan so'zdir. 1. Jinsdan turga ko'chirilgan so'zlarga "Ana mening kemam turibdi" jumlasini misol bo'la oladi Bu yerda umuman "turibdi" so'zi "langarda turibdi" xususiy ma'nosini anglatadi. 2. Turdan jinsga ko'chirilgan so'zlar "Minglab shavkatli ishlarni qildi Odissey... jumlasidagi, minglab so'zi umuman "ko'plab"ning xususiy xolati bo'lgan uchun, bu o'rinda, ko'plab ma'nosini anglatadi. 3. Turdan turga ko'chirilgan so'zlar masalan, "Mis bilan jonni bo'shatib va suv zarrasini charchmas mis bilan kesib". Birinchi holda "bo'shatib"so'j "kesib" ma'nosida, ikkinchi holda "kesib" so'zi, "bo'shatib" ma'nosini anglatadi.

4. O'xshatilgan so'z bu yerda men ikkinchi so'z birinchisiga qanchalik aloqasi bo'lsa, to'rtinchi so'z uchinchisiga shunchalik aloqador bo'lgan holni nazarda tutaman. Shuning uchun (shoir) ikkinchi so'z o'rniga to'rtinchisini yoki to'rtinchi so'z o'rniga ikkinchisini aytish mumkin. Goho bunga almashtirilgan so'zga aloqador bo'lgan so'z ham qo'shiladi. Masalan, kosa Dionisga qanchalik aloqador bo'lsa, qalqon Aresga shunchalik aloqador. Shuning uchun kosani "Dionis qalqoni" qalqonni esa " Ares kosasi" deyish ham mumkin. Yoki oqshom paytini "kunning keksaligi" keksalikni esa "Quyoshni botishi" deb atagan." Buyuk faylasuf "metaforaga g'alati nomning yo jinsdan turga, yo turdan jinsga, yo turdan turga, yo o'xshashlik asosida ko'chirishdir" deb ta'rif beradi. Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda istiora deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayevning fikriga ko'ra, bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: ko'chaning boshi, odamning boshi, odamning ko'zi - uzukning ko'zi, ko'ylakning etagitog'ning etagi kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash

xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiyl muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. "Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo'yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashtiruvchi kuchliligi, lochinning ko'zi o'tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi, natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi." Huddi shu kabi konnotativ ma'no atovchi hayvon nomlari bilan bog'liq metaforalarni ingliz tilida ham uchratishimiz mumkin. 1. Be dumb as a fish-Baliqdek gung

2. A stupid chicken-tovuqmiya 3. Bull pig: dysphemism for police officers- yovvoyi cho'chqa; politsiya hodimlari uchun qo'llaniladi.

4. Locusts: dysphemism for investors-chigirtka:sarmoyadorlar uchun qo'llaniladi.

The "locusts" have become company saviors, the imbalances correct and ensure the long-term prosperity of their holdings.

"Chigirtkalar" tomonidan nomuvofiqliklarni bartaraf etib, investitsiyalarni uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlab, biznesni tiklashga kirishildi. Metafora bilan o'xshatish konstruktsiyaning o'zaro farqlari haqida tilshunoslarimiz o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan. Ingliz madaniyatida ham bu kabi metaforalar talaygina topiladi. Ular ingliz xalqining ba'zida milliyligidan, dini va yoki qadriyatlaridan nishona beradi. Misol uchun: Around the campfire Bu metafora o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganida, "Gulxan atrofida" deb tarjima qilinadi. Ammo ingliz tilidagi tag ma'no: ibtidoiy, o'ta eski, zamonadan orqada qolgan degan ma'noni anglatadi. Xuddi shu ma'noda ingliz tilida "old school" iborasi ham qo'llaniladi. "he was one of the old school of English gentlemen" U ingliz jentlmenlarining eng zamonadan ortda qolgani. Yoki "act like an angel" –o'zini farishta kabi tutmoq, o'zbek tilida "musichadek beozor" metaforasiga to'g'ri keladi. You always behave like a musician, that's why no one believes that you received the school bell. Sen o'zingni hamisha musichadek beozor tutasan shuning uchun maktab qo'ng'irog'ini sen olganingga hech kim ishonmaydi. asosan quyidagi farqlar sanab o'tiladi: 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. 2. O'xshatishda ikki komponent - o'xshatiluvchi o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi.

4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, ko'rsatkichlar bo'ladi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: Nozim tulkiday ayyor odam. O'xshatish konstruktsiya, Bunda Nozim -o'xshatish subyekti, tulki- o'xshatish obyekt, ayyor - o'xshatish asosi, -day - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. Nozim - tulki. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi

xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-yey... (Nozimnisbatan ishlatilmoqda) Bu Metafora hisoblanadi. Chunki, Nozimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti. "Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi" (A. Qodiriy). Polyak olimi Ya.Kasyan ham yuqoridagi fikrni rivojlantirishga harakat qiladi. Agar kelib chiqishini tekshiradigan bo'lsak, shaksiz, aniqlash mumkin bo'ladiki, u yoki bu metafora u yoki bu o'xshatishdan rivojlangan bo'ladi. Biroq shunday asosda xuddi qaramaqarshi xulosa ham chiqarish mumkin -ko'plab o'xshatishlar metaforadan kelib chiqqan.Shuning uchun ayrim olimlar metafora va o'xshatish orasidagi farqqa alohida e'tibor berganlar. Masalan, Veselovskiy, Ch.Kukin, M. Shteynlar fikricha, o'xshatishda o'xshatilayotgan narsalar ajratib tasavvur qilinsa, metaforada ular bir butundek tushuniladi. A.Vejbitskaya fikricha, metafora mohiyatan inkorni nazarda tutadi ko'zlar-olov,insonlar-vaxshiy sherlar deyilganda, hech kim haqiqatan ham ko'zni olov, odamni sher deb o'ylamaydi, bunday fikrni rad etadi, inkor qiladi. O'xshatishda esa o'xshashlik o'z mavqeini saqlab qoladi. Metafora va o'xshatish orasidagi munosabatga qarash ikki xil: 1. Metafora - qisqargan o'xshatish, ya'ni ular orasida farq tashqi shakllanishidadir. 2. Metafora va o'xshatish o'zaro mazmuniy (ichki) shakllanuv jihatidan farq qiladi. Umuman, metaforaga berilgan ta'riflarda uni yondash hodisalar bilan qo'shib yuborilgan holatlar ko'p uchraydi.Masalan, E. Kassirer metaforaga quyidagicha ta'rif beradi: "Metafora bir tasavvur nomini unga mutanosib qandaydir belgiga ega bo'lgan yoki u bilan qandaydir bilvosita "analogiya"larni nazarda tutuvchi boshqa sohaboshqa tasavvurga ko'chirish deb tasavvur qilish mumkin". Ta'rifdan ma'lumki, Kassirer metafora asosida o'xshashliknigina ko'rmaydi, balki umuman har qanday "analogiya"larni nazarda tutadi. Natijada metafora metafora tushunchasi ostiga metonimiya va sinekdoxa ham kiritiladi. Chunki nomi ko'chayotgan va nomni qabul qilayotgan predmetlararo belgining tabiati izohlanmaydi: (o'xshashlikmi, bog'liqlikmi, butun qismlikmi...) shuning uchun nom ko'chishning bir necha xil belgiga asoslanganligi bilan farqlanuvchi turlari chatishib ketgan. XX asrga kelib, ayniqsa, keyingi paytlarda kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bilan metaforaga qarash butunlay o'zgardi, uning ko'lamini kengaytdi. Agar an'anaviy tushunishda "metafora" termini ostida bir so'zning boshqasi bilan almashtirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, bugun aksariyat tadqiqotchilar metafora tom ma'noda fundamental bilish faolyatining namoyon bo'lishi ekanligini e'tirof etadilar. Ko'rinib turganiday, metafora ko'p qirrali va benohoya murakkab hodisa bo'lganligi uchun ham uning talqinlarida farqli jihatlar ancha-muncha.